

XIX ASR FORS-TOJIK ARUZSHUNOSLIGIDA ZIHOF MASALASI TADQIQI (“ME’ROJ UL-ARUZ” ASARI MISOLIDA)

Xayyom Toshqulovich MIRZAYEV

Dotsent

filologiya fanlari bo'yicha (PhD) falsafa doktori

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Samarqand, O'zbekiston

e-mail: umarixayyom@mail.ru

Annotatsiya

Maqolada aruz ilmining muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadigan zihof masalasi o'rganilgan. XIX asrning asosiy manbalaridan sanalgan “Me'roj-ul-aruz” risolasida zihof va uning nazariy xususiyatlari tadqiq etilib, muallifning bu masalaga doir yangiliklari hamda o'ziga xos yondashuvlari yoritilgan. Muhammad G'iyosiddinning zihof haqidagi qarashlari mumtoz aruzshunoslikda mavjud nazariyalar bilan qiyosiy o'rganilib, uning bu boradagi yutuqlari misollar asosida dalillangan.

Tayanch so'zlar: she'r, vazn, aruz, bo'g'in, juzv, sabab, vatad, fosila, rukn, fors-tojik aruzshunosligi, zamonaviy nazmshunoslik.

ИССЛЕДОВАНИЕ ВОПРОСА ЗИХОФ В ПЕРСИДСКО-ТАДЖИКСКОЙ МЕТРИКЕ XIX ВЕКА (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «МЕЪРОДЖ УЛ-АРУЗ»)

Хайям Ташкулович МИРЗАЕВ

Доцент

Доктор философии (PhD) по филологическим наукам

Самаркандский государственный университет

имени Шарафа Рашидова

Самарканд, Узбекистан

e-mail: umarixayyom@mail.ru

Аннотация

В статье рассматривается вопрос зихоф (ямб), который считается одним из важных особенностей метрики, то есть науки об аруз. В трактате «Меъродж-ул-аруз», являющемся одним из основных источников XIX века, изучаются зихоф и его теоретические особенности, а также освещаются авторские новации и уникальные подходы к этому вопросу. Взгляды Мухаммада Гиясиддина на зихоф изучаются в сравнении с существующими теориями классической науки о аруз, а его достижения в этом отношении доказываются на основе примеров.

Ключевые слова: стихотворение, мера, том, размер стиха, зихоф, разум, причина, столбец, персидско-таджикское сопоставление.

Muhammad G'iyosiddinning “Me’roj-ul-aruz” (“Aruz darajalari”) nomli risolasi XIX asr fors-tojik aruzshunosligining muhim nazariy sarchashmalaridan biri hisoblanadi. Bu risola bizgacha to’liq shaklda yetib kelgan. Muallif bu asar orqali o’z davri va keyingi davr aruz fanini o’rganuvchi o’quvchilarga mumtoz aruz nazariyasiga xos bir qator masalalarni ravon va sodda tilda o’qitishni o’z oldiga maqsad qilgan. “Muhammad G’iyosiddinning “Me’roj-ul-aruz” risolasida aruz vaznining kichik birliklari haqidagi qarashlari” nomli maqolamizda muallifning juzv va rukn haqidagi qarashlarini o’rganganimizda ma’lum bo’lgan ediki, “Me’roj-ul-aruz”da aruz ilmining bu kichik birliklaridan so’ng zihof masalasi tadqiqi o’rin olgan [4;155–158]. Bu an’ana XIX asrgacha yaratilgan aruziy risolalarning aksariyatida bir xil davom ettirilgan. Muhammad G’iyosiddin garchi asar mundarijasi nuqtayi nazaridan boshqa mualliflar singari zihofni juzv va rukn masalalaridan keyin o’rgangan bo’lsa ham, ammo uning bu aruziy birlik haqidagi yondashuvlari o’zigacha bo’lgan mualliflardan ko’p jihatdan farq qiladi.

Aruzshunosning bu masalaga doir qarashlarini o’rganishdan oldin zihof ta’rifini ko’rib chiqish maqsadga muvofiq. Aruzshunos olim Urvatullo Toirov o’zining “Farhangi istilohoti aro’zi Ajam” (“Ajam aruzi istilohlari lug’ati”) asarida zihof atamasini quyidagicha izohlagan: “Zihof – aruz ilmida asliy bahrdagi solim rukn (mafoiylun, foilotun, mustaf’ilun, maf’ulotu, foilun, mutafoilun)ning biron bir juzvini o’zgartirish (ruknning biron juzvini ko’paytirish yo ozaytirish, biron harf yo bo’g’inning fonetik o’zgarishi) hodisasini ifodalovchi istilohdir” [3;72].

Yuqoridagi ta’rifdan ko’rinib turibdiki, zihof aruz vazniga oid muhim va nozik masala bo’lib, uni o’rganish va anglash aruz ilmining asosiy talablaridan biridir. Binobarin, zihof masalasi har bir aruz fani ta’limi va tadqiqiga bag’ishlangan asarda izchil ravishda muhokama qilinib kelinmoqda. Muhammad G’iyosiddin ham “Me’roj-ul-aruz”ning alohida faslida aruzning bu muhim birligini tadqiq etishni maqsad qilgan: “Asliy bahr ruknlarining tanishuvidan so’ng, zihof va ilalni ham bilmoq shartdir” [6;93]. Aruzshunos ta’kidlaydiki, aruz ilmini o’rganuvchi shaxs solim bahrlarning asliy ruknlarini o’zlashtirgandan so’ng, zihof va ilal qoydasini o’rganishi kerak.

O'rta asrlarda faoliyat yuritgan ko'plab aruzshunoslar, jumladan, Vahid Tabriziy, Sayfiy Buxoriy, Atoulloh Mahmud Husayniylar zihof masalasiga to'xtalganda, birinchi o'rinda uning ta'rifini keltirganlar. Bu mualliflarning ba'zilar (Atoulloh va Sayfiy) zihof istilohining izohiga batafsil to'xtalib o'tgan bo'lsalar, ba'zilar (Vahid Tabriziy) qisqacha gapirganlar. Abdurahmon Jomiy o'z asarida zihof haqida alohida fasl ajratgan bo'lsa-da, zihofga ta'rif bermaydi. Ehtimol u o'tgan davr aruzshunoslarining ma'lumotlarini qayta takrorlashdan saqlangandir. Chunki Jomiyning boshqa zamondoshlari ta'rifiga e'tibor qaratsak, ular bir-biriga juda yaqin va umumlashganligi ayon bo'ladi. Masalan, Atoullo zihofning bir yoki bir necha harfning tushib ketishi yo ko'payishi va harakatlanuvchi harfning sokinlashuvi natijasida hosil bo'lishini ta'kidlagan bo'lsa [1;12], Sayfiy Buxoriy muzohaf ruknini tadqiq qilar ekan, "ruknning o'zgarishi, yo unga biror narsa qo'shilishidan, yoki undan biror narsani kamaytirishdan hosil bo'ladi" [5;14] deb she'r vaznini o'zgartirishda zihof mavqeini aniqlashga harakat qilgan.

Aruzshunoslarning yuqoridagi ta'riflaridan ko'rinib turibdiki, ular bu ilmning peshvosi Shams Qays Roziyning zihof haqidagi qarashlariga ergashganlar. Jumladan, u "Al-mu'jam"da zihofning ta'rifini quyidagicha keltirgan edi: "Bilgilki, afoil usulida (ruknida) kiradigan har bir o'zgarishni zihof deb ataydilar. Va "zahf" ma'nosi asldan yiroq bo'lish va biron maqsadga yetishmaslikdir. Va shu jihatdan sahmi zihof deb nishonga tegmasdan boshqa tarafga borgan o'qni ataydilar" [7;48]. Ko'rinadiki, aruzshunos "zihof"ning o'zagi bo'lgan "zahf" so'zining ma'nosini asldan uzoq bo'lish, maqsadga yetishmaslik birikmalari bilan izohlagan.

Y/uqoridagi aksariyat olimlarning asarlarini ko'zdan kechirgan Muhammad G'iyosiddin shu an'anani davom ettirish maqsadida zihofning lug'aviy va istilohiy izohiga murojaat qilib, nisbatan yangicha nuqtai nazarni ilgari suradi. U zihofning tarifi haqida ikki aqidani ilgari surgan bo'lib, ulardan birinchisi quyidagicha: "Ba'zilar lug'atda zihof ma'nosini asldan yiroqlashmoq deb yozganlar va istilohiy ma'noda esa, afoil usulida uchraydigan ko'pgina o'zgarishlar yig'indisi

tushuniladi. Va bu o'zgarishlar yo'nalishi uch qismga asoslanadi: rukndagi mavjud biror nuqsonga, yoki undagi harflarning ko'payishida, yoki rukn tarkibidagi mutaharrik harfning sokinlashuvida" [6;93].

Muhammad G'iyosiddin zihofning lug'aviy ma'nosini Shams Qays Roziy ma'lumotlari asosida qisqacha keltirgan va uning istilohiy ma'nosiga ko'proq to'xtalgan. Uning tahliliga ko'ra, ruknda sodir bo'ladigan o'zgarish uch qismdan iborat: birinchidan, ruknda biror nuqsonning paydo bo'lishi; ikkinchidan, rukn tarkibidagi harfning oshirilishi; uchinchidan, rukn tarkibidagi harakatlanuvchi harfning sokinlashuvi. Zihof istilohining bunday sodda usulda tushuntirilishi boshqa aruziy risolalarda uchramaydi. Faqat Shams Qays Roziy "zihof haqiqati mutaharrikning sokinlashuvidir, yo harf ila tushgan nuqsondir, yo bir, yo ikki harf", deb rukn tarkibidagi o'zgarishni va uni zihof deb atalishini umumiy tarzda ta'kidlab o'tgan edi. Ma'lum bo'lishicha, Muhammad G'iyosiddin Shams Qays Roziyning yuqoridagi jumlasiga o'zining qarashlari bilan oydinlik kiritgan.

Aruzshunosning zihof masalasiga oid ikkinchi va o'z navbatida yangi qarashi o'zigacha faoliyat yuritgan aruzshunoslarning ma'lumotlaridan farq qiladi. U o'z qarashini aniq ifodalash uchun avvalo ba'zi qadimgi aruz ilmi ustozlari bahsiga to'xtalib, ularning tilidan zihof ta'rifini quyidagicha ta'kidlaydi: "Va ba'zilar nigohidan zihof lug'atda "o'qning nishonga yaqin joyga tegishi" ma'nosidadir va qadimgi aruz ilmi arboblari, jumladan, Ziyouddin Xazrajiy, Muhibuddin Basriy, "Hadoiq-us-sehr" muallifi Rashiduddin Vatvot, "Me'yor ul-ash'or" muallifi Nasiruddin Tusiy, Salmon Sovajiy va boshqalar nigohidan zihof istilohda sababi xafif yo sababi saqilning oxirgi harfini sokin, yo hazf etish hodisasini ifodalaydi" [6;93–94]. Muallif zihofning lug'aviy ma'nosini ham, istilohiy izohini ham ushbu qadimgi davr aruzshunoslari nuqtai nazariga qaraganda boshqacharoq ta'riflaydi. Ma'lum bo'lishicha, Ziyouddin Xazrajiy, Muhibuddin Basriy, Rashiduddin Vatvot, Nasiruddin Tusiy, Salmon Sovajiy va boshqa aruz ilmi ustozlari nuqtai nazarining o'zgarishi zihofning istilohiy izohida ko'proq namoyon bo'ladi. Ularning nuqtai nazariga ko'ra, zihof sababi xafif, yo sababi saqilning oxirgi harfini harakatlanuvchidan sokinlashtirish yo, o'sha harfni hazf (soqit)

etishdir. Muhammad G'iyosiddin yuqoridagi aruzshunoslarning bu qarashiga ilmiy yondashib, bir tomondan uni inkor etadi. Uning fikricha, rukn o'zgarishidagi ular aytgan hodisani zihof atamaydilar. Garchi o'tmishdagi aruzshunoslar bu hodisani zihof deb talqin qilgan bo'lsalar ham Muhammad G'iyosiddin aruz afoillari tarkibidagi o'zgarishlarni faqat zihof bilan bog'liq deb bilmaydi. Uning fikricha, yuqoridagi ta'rif "ilal" istilohiga xosdir. Masalan, muallif yuqoridagi ta'rifdan keyin bu hodisa yuzasidan o'z munosabatini quyidagicha ifodalaydi: "Demak, bu ma'noda afoilning birinchi, uchinchi, oltinchi harflari muzohaf bo'lmaydi, chunki birinchi, uchinchi, oltinchi harflar sabab yoki vatadning birinchi harfidir. Bu harfning o'zgarishi "ilal" deb ataladi. Va ba'zilar hammasini "zihof" nomlaydilar" [6.94]. Aruzshunosning bu ta'rifidan ko'rinib turibdiki, ruknda ikki xil o'zgarish hodisasi mavjud, uning yuqoridagi yondashuviga ko'ra, ilal hodisasi zihofdan farq qiladi. Sabab yoki vatad tarkibiy qismlarining birinchi o'zgarishi ilal hodisasi bo'lib, Muhammad G'iyosiddinning fikricha, ba'zi aruzshunoslar bu hodisani zihof qoidasiga xos deb bilishgan.

Muhammad G'iyosiddin "Me'roj-ul-aruz"da zihof va ilal istilohlarini tushuntirib bo'lgach, ularni tasniflashni boshlaydi. Fors-tojik aruzshunosligi tarixini o'rganishdan ma'lum bo'ladiki, turli asrlarda yashagan aruz ilmi ustozlari orasida aruz zihoflarining tasnifi va soni to'g'risida turlicha fikrlar mavjud. Masalan, fors-tojik aruzining mashhur tadqiqotchilaridan biri Shams Qays Roziy "Al-Mu'jam"da Ajam she'riyati vaznida o'ttiz besh zihofning ishtirok etishini kuzatgan: "Bilginki, Ajam she'riyatining jami o'ttiz beshta zihofi bor. Yigirma ikkitasi arab she'riyatidan kelgan va o'n uchtasi Ajam aruzshunoslari ixtiro etgan vaznlardan hosil bo'lgan" [7;50]. Shundan so'ng Shams Qays Arab va Ajam she'riyatiga xos zihoflar nomini keltirib, ularning har birini aruz ruknining o'zgaruvchan hodisasi sifatida izohlaydi. XV asr aruzshunos olimi Vahid Tabriziy o'zining "Jam'i muxtasar" asarida Shams Qaysning zihoflar bilan bog'liq bu tasnifini qo'llab-quvvatlab, "Ajam ustozlari zihofni o'ttiz beshta deb keltirganlar, yigirma ikki Arab aruzida va o'n uch Ajam aruzida sodir bo'lgan va nimaiki bizga ishlatilsa, o'shani keltirishni lozim topdik" [2;23] deb, o'ttizta zihofning sharhini

keltiradi. Jomiy “Risolai aruz”da turli bahrlarning vaznlarini tahlil qilar ekan, she’riy misollar asosida jami 21 ta zihofni ko’rsatgan. Sayfiy “Aruzi Sayfiy”da fors-tojik she’riyati vazni amaliyotida atigi 18 zihofni she’riy misollar bilan aniqlagan. Xoja Hasan Nisoriyning “Chahor gulzor”ida aruziy zihoflarning miqdori va amalda qo’llanilishi Jomiy va Sayfiy ko’rsatmasidan ortiq emas.

Muhammad G’iyosiddin “Me’roj-ul-aruz”da fors-tojik aruzi zihoflarining sonini o’zidan oldingi mualliflar va zamondoshlariga nisbatan sezilarli darajada ko’p ko’rsatgan. U jami 47 ta zihof va ilalni alohida-alohida keltirgan va har birini batafsil, izohlari bilan tushuntirishga harakat qilgan. Muhammad G’iyosiddin tadqiqotlarida, bir tomondan, o’tgan mualliflarga nisbatan zihoflar ko’p ko’rsatilgan bo’lsa, ikkinchi tomondan, u ilalga alohida to’xtalib, zihoflarning o’ziga xosligi va murakkabligini ta’kidlaydi hamda Ajam aruzining maxsus zihoflariga alohida fasl tashkil etadi. Bizningcha, yuqoridagi o’ziga xos izlanishlar natijasi aruzshunosning bu masaladagi yangicha yondashuvini belgilab beradi. Chunki, bu jihatlar uning davrigacha yaratilgan boshqa aruziy risolalarda ko’zga tashlanmaydi.

Muhammad G’iyosiddin zihofga bag’ishlangan faslda uning ta’rifini bergandan so’ng, “Asmoi zihofot” (“Zihoflarning nomlari”) sarlavhasi orqali quyidagi zihoflar: izmor, xabn, qas, tay, asb, qabz, aql, kaf, xabl, xazl, shakl, naqs, tash’is, muoqabat, muroqaba, mukonafa sharhini keltirgan. Diqqatga sazovor jihati shundaki, aruzshunos birinchi galda sakkiz zifoni izohlab, kaf zihofi izohining oxirida “Va mufrat zihoflar shu sakkiztadir” [6;95] jumlasini keltirib o’tadi. Ma’lumki, hozirgi zamon tadqiqotchilari, xususan, Urvatullo Toirov zihoflarni tarkib jihatidan mufrad (yakka, yagona) va murakkab turlarga ajratgan. Jumladan, bu olimning ma’lumotlari quyidagicha: “Asl ruknlardan faqat bir o’zgartirish kiritish natijasida hosil bo’ladigan zihoflar mufrad zihoflar deyiladi. Murakkab zihoflar bo’lsa, asl ruknlarga ikki yoki uchta o’zgartirish kiritish natijasida amalga oshiriladi” [3;74].

Ta’kidlash joizki, zihoflarning mufrad va murakkab bo’lishlik xususiyatlari boshqa aruziy risolalarda uchramaydi. Muhammad G’iyosiddin aruz ilmi ustoz

sifatida o‘z davri va keyingi davr aruz fanini o‘rganuvchi shogirdlariga birinchilardan bo‘lib zihofning bu tarkibiy xususiyatini ko‘rsatgan. Muallif tomonidan tasniflagan bu guruhdagi zihoflardan shu narsa oydinlashadiki, izmor, xabn, qas, tay, asb, qabz, aql, kaf zihoflari tarkib nuqtai nazaridan mufrad zifoflar va xabl, xazl, shakl, naqs, tash’is, muoqabat, muroqaba, mukonafa zihoflari tarkib nuqtai nazaridan murakkab zihoflar sirasiga kiradi.

Aruzshunos mazkur zihoflarning izohidan so‘ng, ilal izohiga o‘tadi. U avvalo ilalning ta’rifini quyidagicha keltiradi: “Bilginki, ilal illatlar yig‘indisidir. Va istilohda ruknning boshi yo oxiridan zihof amalidan boshqa yana biror narsani kamaytirish yo ko‘paytirishdir” [6;97]. Ilal ta’rifining soddaroq va yana ham tushunarli usuli “Farhangi istilohoti aruzi Ajam” izohli lug‘atida keltirilgan va biz mavridida bu yerda uni keltirib o‘tishni o‘rinli deb bildik: “Ilal (ar. – kasalliklar), aruz ilmida shunday o‘zgarishlarni ilal deb nomlaydilarki, ular vatadi majmu’ (V –) va vatadi mafruf (– V) ga yuz bergan bo‘lsa va ruknning *aruz* va *zarb* turlariga foydalanilgan bo‘lsa. Garchi asliy bahrning asliy ruknlaridagi biror juzvining o‘zgarishi omma oldida zihof bo‘lsa-da, ammo aruzshunoslar faqat ruknning sabablar qismidagi o‘zgarishni “zihof” va vatadlarda yuz bergan o‘zgarishni “ilal” deb nomlaganlar. Binobarin, maqsur, mahzuf, muzol, musabbag‘ va boshqalar aslida ilal bo‘lib, lekin zihof nomi bilan mashhurdir” [3;79–80].

Yuqoridagi izohga ko‘ra, ruknning vatad qismida sodir bo‘lgan o‘zgarish va bu vatad bayt arkonining aruz (birinchi misraning oxirgi rukni) va zarb (ikkinchi misraning oxirgi rukni) qismlariga taalluqli bo‘lsa, ilal deb nomlaydilar. Ilalning lug‘aviy ma’nosini Muhammad G‘iyosiddin “kasalliklar majmui”, deb izohlasa, Urvatullo Toirov faqat “kasalliklar” ma’nosida kelishini ko‘rsatadi. U ham Muhammad G‘iyosiddin yondashuviga tayanib, ilal hodisasi e’tibordan chetda qolib, uni qadimgi aruzshunoslar zihof deb ataganliklarini o‘z qarashlarida ta’kidlaydi.

Shunday qilib, aruzshunos olim “Me’roj-ul-aruz”da zihof va ilal masalasini yoritar ekan, bir tomondan aruz ilmining o‘tmishdagi buyuk ustozlari qarashlarini

qabul qilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan tajribali ustoz sifatida o'zining masalaga doir yangicha yondashuvini keyingi davr aruzshunoslariga meros qoldirdi.

Muallifning aynan bu yutug'ini "Me'roj-ul-aruz"ni nashrga tayyorlagan muharrirlar quyidagicha ta'riflagan edilar: "Muhammad G'iyosiddin zihof va ilalni aralashtirib, har ikkisini zihof atamasi ostida izohlagan oldingi aruz risolalari mualliflaridan farqli o'laroq, zihof va ilalni ajratib, har birini o'z o'rnida talqin etadi" [6;87]. Xullas, aruzshunos XIX asrgacha zihof hodisasi bo'yicha mumtoz aruzshunoslar o'rtasida kuzatilgan bir xillikka asoslangan bahsga yangicha nuqtayi nazardan yondashdi. U zamonaviy fan nazariyasida ilal qoidasi mavjudligini isbotlab berdi va keyingi davr mutaxassisleri uchun uni qanday o'rganish, aniqlash tadqiqot usulini ko'rsatishga erishdi. Muhammad G'iyosiddin seriste'mol ruknlarning furu'lari masalasiga ham e'tibor berib, ularning soni, nomi va tarkibini ma'lum bir o'qitish konsepsiyasi orqali ko'rsatishga muvaffaq bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Atoulloh Husayniy. Badoyi' us-sanoyi'/ Forschadan A.Rustamov tarjimasi. – T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981.
2. Vahidi Tabrezi. jam'i muxtasar. Ba nashr hozirkunanda E.E.Bertels. – Moskva, 1959.
3. Urvatullo Toirov. "Farhangi istilohoti aro'zi Ajam". – Dushanbe: "Maorif", 1991.
4. Mirzayev Xayyom. Muhammad G'iyosiddinning "Me'roj-ul-aruz" risolasida aruz vaznining kichik birliklari haqidagi qarashlari. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal. ISSN 2091-573 X. -№11/4 (120), 2024 y. 155-158-betlar
5. Sayfiy. "Aruzi Sayfiy". Nashrga tayyorlovchi H.Bloshman. – Kalkutta, 1872.
6. "Se risolai aruz": "Me'roj-ul-aruz". Muallifoni sarsuxanu tavzehot va hozirkunandagoni chop Urvatulloi Toir va digaron. – Dushanbe, 2014.

7. Shamsi Qaysi Rozi. “Al-mu’jam”. Muallifoni sarsuxanu tavzehot va hozirkunandagoni chop U.Toirov. – Dushanbe: Adib, 1991.